



**O'ZKIMYOSANOAT**  
AKSIYADORLIK JAMIYATI

2021-yil 24-dekabr

## **“O'zkiymyosanoat” AJ “Korrupsiyaga qarshi kurashish menejment tizimi” mavjudligini tasdiqlovchi xalqaro ISO 37001:2016 sertifikatiga ega bo'ldi**

“O'zkiymyosanoat” aksiyadorlik jamiyati tomonidan korrupsiyaning oldini olish, unga qarshi kurashish va chek qo'yishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar izchil amalga oshirib kelinmoqda. Avvalo O'zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019 yil 27-maydagi “O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi PF-5729-sonli Farmoni talablari asosida “O'zkiymyosanoat” AJda Komplayens xizmati tashkil etildi va “Yo'l xaritasi” ishlab chiqilib, amalga oshiriladigan tadbirlar belgilab olindi. Mazkur sohada hamkorlik “KPMG” xalqaro auditorlik tashkiloti bilan yo'lga qo'yildi.

Ushbu dasturga muvofiq korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki me'yoriy hujjatlar, ya'ni “Korrupsiyaga qarshi siyosat”, “Axloq kodeksi”, “Manfaatlar to'qnashuvini boshqarish siyosati” kabi 20 dan ortiq ichki me'yoriy hujjatlar qabul qilindi va o'rnatilgan tartibda barcha xodimlarga tanishtirish va tushuntirish ishlari amalga oshirildi.

Bugungi kunda korrupsiyaga qarshi kurashish maqsadida komplayens nazorat tizimi bosqichma-bosqich kimyo sanoati korxonalariga tadbir etilmoqda. Jumladan, “Navoiyazot” AJ, “Farg'onaazot” AJ, “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ, “Maksam-Chirchiq” AJ, “Birinchi rezinotexnika zavodi” MChJ, “O'zkiymyoimpeks” MChJ va “Qo'ng'irotda soda zavodi” MChJ-QKlarida komplayens nazorat tizimi o'z faoliyatini yuritmoqda. Shuningdek, “O'zkiymyosanoatloyiha”, “Ammafos-Maksam” AJlarda mazkur tizimga xodimlar tanlash ishlari amalga oshirilmoqda.



Jamiyat va tizim korxonalari xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, ularni huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish maqsadida kompayens xizmati xodimlari va huquq-tartibot organlari xodimlari ishtirokida joriy yilda 120 dan ortiq tushuntirish-profilaktik tadbirlari amalga oshirildi.

Korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha faoliyatning ochiqligi va shaffofligini ta'minlash maqsadida joriy yil davomida ommaviy axborot vositalari va tashkilotning rasmiy veb-sayti orqali sohaga oid jami 40 dan ortiq materiallar e'lon qilindi.

"O'zkimyo sanoat" AJda xodimlari o'rtasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida tushuntirish ishlarini olib borish maqsadida Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Bosh prokuratura, Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti, Davlat xavfsizlik xizmati mas'ul xodimlari hamda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professor-o'qituvchilari ishtirokida seminarlar o'tkazildi.



Joriy yilning noyabr oyida ISO 37001:2016 xalqaro standart talablariga muvofiq "CERT International" xalqaro trening kompaniyasi mutaxassislari tomonidan "O'zkimyosanoat" AJning korrupsiyaga qarshi kurash menejment tizimi auditdan muvaffaqiyatli o'tdi va xalqaro auditorlik va sertifikatlash tashkiloti tomonidan korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmi amalda samara berayotganining asosiy ko'rsatkichi hisoblanuvchi ISO 37001:2016 muvofiqlik sertifikatini taqdim etildi.

Ushbu ISO 37001:2016 muvofiqlik sertifikatini qo'lga kiritilishi "O'zkimyosanoat" AJ o'z navbatida korrupsiyaga qarshi talablar va axloqiy me'yorlarni hisobga olgan holda har doim o'z zimmasiga olgan majburiyatlarini vijdonan bajarishi, qonun hujjatlariga qat'iy rioya qilishi, teng raqobat tamoyillariga amal qilishi va halollik, ochiqlik va vijdonlilikning korporativ madaniyatini shakllantirish bo'yicha mas'uliyatni oshiradi.

**"O'zkimyosanoat" AJ Matbuot xizmati**

**source:**

*"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati*

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/iso-37001-2016>